

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Nuranova O'ktamxon Kamolovna

*Andijon viloyati Marhamat tumani 5-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich
ta'lim o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.*

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar ta'lim jarayoniga o'zlari bilmagan holda qiziqishi bilan kirishib ketadilar.*

Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Ta'limni isloh qilinishi jarayonining ajralmas, muhim qismi hisoblangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar ta'lim jarayoniga o'zlari bilmagan holda qiziqishi bilan kirishib ketadilar. Tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy interfaol strategiyalar bo'lgan bilimlarni samarali o'zlashtiradi.

Chunki bugun sinflarni to'ldirib o'tirgan o'quvchilar sho'x, beg'ubor bolalik gashtini surayotgan, ba'zan xayolparast bolalardir. Ular orasida hatto 45 daqiqalik dars jarayonining nihoyasini intiqlik bilan kutib, ta'limga yuzaki qaraydigan o'quvchilar ham yo'q emas.

Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs – munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim – tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iboratdir. barcha fan o'qituvchilari shu jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol metodlardan borgan sari keng ko'lamda foydalanmoqdalar.

Interfaol metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Interfaol degani, o'qituvchi va o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik tufayli dars maradorligini oshadi, yangi darsni o'quvchi mustaqil harakat, mulohaza, bahs-munozara orqali o'rganadi, qo'yilgan maqsadga mustaqil o'zi darsda o'quvchi faol ishtirok etgan holda kichik guruhlarda javob topishga harakat qiladi, ya'ni ham fikrlaydi, ham baholaydi, ham yozadi, ham gapiradi, ham tinglaydi, eng keragi o'zi faol ishtirok etadi. Interfaol usullarining negizidagi topshiriq mazmunini anglab yetgan o'quvchilar ta'lim jarayoniga o'zlari bilmagan holda qiziqish bilan kirishib ketadilar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan matematik ta'limning interfaol strategiyalari ta'lim jarayonining yengillashuvini, aniqlashuvini, keng jamoani qamrab olishga m o'ljallanganligini, o'qituvchining faqatgina yo'l - yo'riq ko'rsatuvchi nazoratchiga aylanishini, o'qitishning erkin va majburiyatsizligini hamda eng asosiysi o'quvchilar uchun o'ta qiziqarligini va samaradorligini ta'minlab bera oladi. Vazifamiz taqdim etilayotgan matematik ma'lumotlar tizimini o'quvchilar ongiga singdirishda imkon qadar oson, qiziqarli, serqirra va shu bilan birga samarali yo'llarini ishlab chiqarishdan iborat.

Interfaol strategiyalarning qo'llanilishi majburiy matematika darsi jarayonini beixtoyor psixologik o'yin yoki musobaqaga aylantirib, yuqorida tilga olingan passiv o'quvchilarni ham biroz bo'lsa-da, lekin yuritishga o'z fikrlarini keng ommaga izhor etishga, sinfda kechayotgan bahs-munozaralarga befarq bo'lmasdan, faol ishtirok etishga undaydi.

An'anaviy usulda tuzilgan darsga o'quvchilarning faqat bilim olishiga talab qo'yilgan bo'lsa, matematika ta'limining yangi modelida bilim bilan birga ta'lim samarasini oshirishda tanqidiy, mustaqil fikrlashga o'rgatish ham yuqori o'ringa qo'yiladi.

Bunda dars mobaynida o'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi an'anaviy, majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashiga katta e'tibor qaratiladi, buning uchun esa o'quvchiga tanqidiy, mustaqil fikrlash malakasini singdirib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Masaharipova G.I, Rajabov f oily matematika asaoslari -2010yil, 391 bet
2. Xamedova N.A va boshqalar Matematika-Toshkent 2007 yil, 312 bet
3. Xoliqov A "Pedagogik mahorat" Toshkent-2010 yil, 350 bet
4. Staylova L va boshqalar "boshlang'ich matematika kursi asoslari " - Toshkent. O'qituvchi. 1991 yil, 336 bet